



Muqaddas ABDURAHMANOVA,
O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrasini prof. v.b., f.f.d
E-mail: Mabduraxmanova20@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-6987-3501

ToshDO'TAU professori, f.f.d Z.Xolmanova taqrizi asosida

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA FREYM VA GESHTALT TAHLILI

Аннотация

Maqolada kognitiv tilshunoslik doirasida freym va geshtalt tushunchalarining nazariy asoslari, ularning o'zaro farqli va umumiy jihatlari tahlil qilingan. Til va tafakkur o'rtasidagi dialektik munosabatlar yoritilgan holda, inson ongida bilimlarning strukturalanishi va idrok jarayonlarini kognitiv yondashuv asosida izohlangan. Freym modeli bilimlarning stereotipik tuzilmasi sifatida, geshtalt esa idrokning yaxlitlik tamoyiliga asoslangan mexanizm sifatida talqin etilgan. Freym, skript va konsept tushunchalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, ularning lingvistik va kognitiv tahlildagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, badiiy matnlar misolida freym va geshtalt yondashuvlarining amaliy qo'llanishi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida ushbu ikki model inson tafakkuri va olamning lisoniy manzarasini chuqur anglashda bir-birini to'ldiruvchi samarali vosita ekanligi asoslab beriladi. **Kalit so'zlar:** freym, geshtalt, konsept, skript, lingvistik tahlil, mental model, semantik tuzilma.

АНАЛИЗ ФРЕЙМА И ГЕШТАЛЬТА В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы понятий фрейма и гештальта в когнитивной лингвистике, а также анализируются их сходства и различия. Освещена диалектическая взаимосвязь языка и мышления, раскрывая механизмы структурирования знаний и процессов восприятия в человеческом сознании с позиций когнитивного подхода. Фрейм интерпретируется как структура стереотипных знаний, тогда как гештальт объясняет восприятие как целостный процесс. В статье также рассматриваются понятия концепта и скрипта в их взаимосвязи, определяется их роль в лингвистическом и когнитивном анализе. На примере художественного текста демонстрируются практические возможности применения фреймового и гештальт-анализа. Делается вывод о том, что данные подходы взаимодополняют друг друга и способствуют более глубокому пониманию когнитивных процессов и языковой картины мира.

Ключевые слова: фрейм, гештальт, концепт, скрипт, лингвистический анализ, ментальная модель, семантическая структура.

FRAME AND GESTALT ANALYSIS IN COGNITIVE LINGUISTICS

Annotation

This article examines the theoretical foundations of the concepts of frame and gestalt within cognitive linguistics and analyzes their similarities and differences. The author highlights the dialectical relationship between language and thought, explaining the mechanisms of knowledge structuring and perception processes in the human mind from a cognitive perspective. The frame is interpreted as a structure of stereotypical knowledge, while gestalt explains perception as a holistic process. The study also explores the interrelation of the concepts of concept and script, emphasizing their role in linguistic and cognitive analysis. The practical application of frame and gestalt analysis is demonstrated through examples from literary texts. The research concludes that these two approaches complement each other and contribute to a deeper understanding of cognitive processes and the linguistic worldview.

Key words: frame, gestalt, concept, script, linguistic analysis, mental model, semantic structure.

Kirish. Ma'lumki, nazariy tilshunoslikning asoschisi Vilgelm fon Gumboldt tilning mohiyatini ochishda antinomiya (anti – qarshi, nomos – qonun; qonundagi qarama-qarshilik) metodini qo'llaydi. Bu jarayonda til tizimiga nisbatan bir qancha antinomialarni keltiradi. Shulardan biri, til va tafakkurning o'zaro dialektik munosabati haqidagi fikrlaridir: a) til va tafakkur o'zaro ajralmas, bir butundir; b) til va tafakkur o'zaro "ajraluvchi", ikki qarama-qarshilikka egadir. Til tafakkurni, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tafakkur til orqali yuzaga chiqadi. Tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yo'q. Ayni vaqtda til moddiy, tafakkur esa psixologik jarayondir. Tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlarini maxsus o'rganuvchi soha mentalingvistika deb ataladi. Mentalingvistika atamasi yun. mens, mentis – "aql, idrok, tafakkur" so'zlari birikishidan hosil bo'lgan. Mentalingvistika masalalarini o'rganish nafaqat umumiy tilshunoslik, balki

mantiq, psixologiya, falsafa va boshqa fanlar uchun ham o'ta murakkab va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Tafakkur barcha psixik jarayonlar kabi miya faoliyati mahsulidir. Tafakkur jarayoni tushuncha, hukm, xulosa chiqarish shaklida namoyon bo'ladi. Tilni tafakkur (ong, tushuncha) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha kognitiv tilshunoslikdir. Kognitiv so'zi inglizcha "cognize – bilmoq, anglamok, tushunmoq" demakdir. Kognitiv tilshunoslik "chegaradosh fan" bo'lib, kognitologiya (bilimlar haqidagi fan), kognitiv psixologiya (bilish psixologiyasi), psixolingvistika, lingvistika kabi sohalar integratsiyasi asosida vujudga keldi. Kognitiv tilshunoslikka XX asrning 70-yillarida V.fon Gumboldt, O.Yespersen, L.Yelmslev, Boduen de Kurtene, I.Meshchaninov va boshqalar tomonidan o'rta tashlangan til

va tafakkurning o'zaro aloqadorligi haqidagi g'oyalari asos bo'ldi. Ilk bor kognitiv tadqiqotlar 1960-yil Garvard universitetida psixologlar J.Miller va J.Bruner tomonidan o'tkazildi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I. Gerasimovning ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. Kognitiv tilshunoslikning shakllanishida M.Minskiy, Ch.Fillmor, U.Cheyf, Y.Kubryakova, V.Demyankov, A.Kibriklarning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi – nutqni qabul qilish mexanizmlari, tilda kategorizatsiya masalasi, borliqni anglash va tasnif qilish, olam manzarasi, ya'ni olam haqidagi bilimlarning hosil qilinishi, axborotning turli faoliyatini tilda aks ettirishga yordam beradigan tizimlarni o'rganishdan iborat. Z.D.Popova va I.A.Sternin ta'kidlaganidek: “Kognitiv lingvistika ong orqali voqelikni idrok etish, anglash va natijada idrok etish jarayonida yuzaga keladigan mental jarayonlarni, shuningdek, ularning mental tasvirlash turlari va shakllarini o'rganadi”.

Y.S.Kubryakova “kognitiv fan va kognitiv tilshunoslik uchun yangilik – bu tilni inson boshidagi (miya) kognitiv, mental, intellektual va ichki faoliyatiga kirish vositasi sifatida ta'riflash”- deydi. Rossiyada kognitiv lingvistikaning rivojlanishi 1980-yillarda amerikalik T.A.Van Deyk, A.Vejbitskaya, R.Jekendoff, M.Jonson, G.Lakoff, V.Langaker va yevropalik E.Rosch, C.J.Fillmor kabi olimlarning asarlarini rus tiliga tarjima qilishdan boshlandi.

Kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlarda sohaning asosiy tushunchalari sifatida keltirilgan konsept, freym, skript, geshtalt terminlari tavsiflangan. Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – bu konseptdir. Bu atama XX asrning 90-yillariga kelib qo'llana boshladi. Konsept so'zi aslida lotincha conceptus so'zidan olingan bo'lib, “tushuncha” ma'nosini ifodalaydi. Asosiy qism. Jahon tilshunosligida til birliklarini konseptosferani ifodalash vositasi sifatida o'rganish yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Konsept borliq, inson tafakkuri va til o'rtasidagi aloqadorlikni namoyon etadigan mental tushuncha bo'lib, kognitiv tilshunoslikning asosi konseptuallashtirish va kognitiv tahlillardan iborat. Konsept – tushuncha – so'z munosabati insonning borliqni anglash, qabul qilishi yaxlit tizim, mental sxemalar asosida amalga oshirishga asoslanadi.

Insonning borliq, ijtimoiy voqelik haqida hosil qilgan bilimlari ma'lum yo'nalishlarga ko'ra lisoniy ongda jamlanadi va miyaning xotira qismida alohida guruh bo'lib joylashadi. Voqelik inson ongida tizimli ravishda tartiblanadi va freym ko'rinishini oladi. Freym voqelikni, borliqni idrok etish, ma'lumotlarni qabul qilish uchun talab qilinadigan, insonda mavjud bo'lgan bilimlar zaxirasidir. Har bir shaxs ongidagi freymlar to'plami, mavjud bilimlar bazasi, yangi axborotni idrok etish jarayonini ta'minlaydi. Freym atamasini birinchi marta F.Bartlett va T.Kunning asarlari ta'sirida bo'lgan Marvin Minskiy tomonidan (1974-yil) insonning yangi bilimlarni egallash va uni birlashtirish qobiliyatini xotirada mavjud bo'lgan tajriba tuzilmalari bilan tushuntirish uchun ishlatilgan. Freymlarni inson ongidagi bilimlar strukturasi yoki vaziyatlarni tushuntiruvchi model deb tushunilgan.

Freymlar nazariyasining asosiy qo'llanilish sohalari sifatida 1. Vizual idrok (Vision) ya'ni turli freymlar sahnani turli nuqtayi nazardan tasvirlaydi, bu esa kuzatuvchi harakatlanganda tasvirni noldan qayta hisoblamasdan tezda tushunishga yordam beradi. 2. Tilshunoslik va NLP (tabiiy tilni qayta ishlash)da gaplar, matnlarni tahlil qilishda so'zlarning ma'nosi “sahnalar” (scenes) orqali tushuniladi. Masalan, “restoranga borish” yoki “bolalar tug'ilgan kuni” kabi ssenariy freymleri (scenarios/scripts) insonning umumiy bilimlarini tizimlashtiradi. 3. Sun'iy intellektda freymlar an'anaviy

mantiqiy tizimlarga qaraganda umumiy tushunchaga (common-sense) asoslangan bilimlarni samaraliroq ifodalaydi.

Freymlar va ssenariylar (scripts)ning asosiy farqlari ularning bilimni tashkil etish usuli, yo'nalishi va qo'llanilish maqsadida namoyon bo'ladi. Freym bu stereotipik vaziyatlar yoki obyektlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan umumiy ma'lumotlar tuzilmasi bo'lsa, ssenariy (script) Roger Schank tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ma'lum bir voqea turi uchun odatiy voqealar ketma-ketligini (normal sequence of events) yozib boruvchi freymga o'xshash tuzilmadir. Freymlar ko'pincha vizual sahnalarni va obyektlarning o'zgarish xususiyatlarini ifodalashga yo'naltirilgan. Ssenariylar esa asosan vaqt bo'yicha o'zgarishlar, harakatlar zanjiri va sabab-oqibat munosabatlarini aks ettiradi. Freym slotlari obyekt yoki vaziyatning qismlarini (masalan, “Kitob” freymida nomi, muallifi, janri) ifodalaydi. Ssenariy slotlari esa voqealar bosqichlarini aks ettiradi; masalan, “restoranga borish” ssenariysida kirish, joy tanlash, menyu ko'rish, buyurtma berish va hisob to'lash kabi ketma-ket amallar joy oladi. Xulosa qilib aytganda, freymlar dunyodagi obyektlar va vaziyatlarining “qandayligini” (tuzilishini), ssenariylar esa voqealarning “qanday sodir bo'lishini” (jarayonini) tushunishga xizmat qiladi. Inson borliq, voqelik haqida bilim hosil qilar ekan, u egallagan axborot ma'lum bir izchillik va ketma-ketlikda idrok etiladi. Axborot, bilimning ketma-ketligi insonning yosh jihati, faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Skriptlar ma'lumotlar ketma-ketligini aks ettiradi.

“Geshtalt” fikrlar, his-tuyg'ular, harakat va nutq faoliyatini o'z ichiga olgan turli xil insoniy tajribalarni tashkil qilishning keng tan olingan chizmalaridan biridir. Nemis tilidan olinganda geshtalt shakl, tasvir yoki umumiy ko'rinish degan ma'nolarni anglatadi. “Geshtalt” kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, “freym”, “tushuncha” va “konsept” atamali bilan chambarchas bog'liq. Geshtaltda madaniy ma'lumotlar insonning miyasida ma'lum hayotiy tajribalar natijasida to'planadi va lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Tomas Kun ta'kidlaganidek, fan taraqqiyoti oddiy bilim to'planishi emas, balki mavjud paradigmalarmashinuvu orqali yuz beradi. Shu jarayonda olimlar bir xil hodisani turlicha talqin qila boshlaydi, masalan, Arastu tebranyotgan toshni “cheklangan tushish” sifatida izohlagan bo'lsa, Galiley uni “mayatnik” sifatida angelaydi. Bu esa hodisaning o'zi emas, balki uni ko'rish va tushunish usuli o'zgarganini bildiradi. Demak, geshtalt almashinuvu - bu inson ongida mavjud konseptual model yoki paradigma o'zgarganda, bir xil reallikni butunlay yangi, yaxlit obrazda idrok etish jarayonidir. Natijada, ilmiy bilish yangi bosqichga ko'tarilib, voqelikni chuqurroq va aniqroq tushuntirish imkoniyati yuzaga keladi. Marvin Minskiyning ta'kidlashicha, uning freymlar nazariyasi geshtalt psixologiyasining asosiy muammolariga qaratilgan bo'lsa-da, ulardan tubdan farq qiladi. Minskiy idrokni sensorli hissiyotlar va simvolik ma'lumotlarning murakkab o'zaro ta'siri orqali tushuntiradi. Geshtalt tushunchasi bizning idrokimizdagi yaxlitlik, shakl va struktura masalalarini o'rganuvchi fundamental model sifatida gaudalanadi.

Freym va geshtalt o'rtasidagi asosiy farqlar ularning axborotni qayta ishlash mexanizmi, tuzilishi va ilmiy yondashuvida namoyon bo'ladi. Geshtalt nazariyasi idrokning tabiatan yaxlitligini asoslab, sensor ma'lumotlarning darhol va global tarzda butun obrazga birlashishini izohlaydi; bunda shakl-fon ajratilishi va qismlarning butunlikka uyushishi asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli u ko'proq parallel va maydon (field-like) xususiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida talqin qilinadi. Freymlar nazariyasi esa, aksincha, bilim va tajribaga tayangan holda axborotni bosqichma-bosqich, ketma-ket tarzda qayta ishlovchi simvolik tizimni ifodalaydi. Unda ma'lumotlar iyerarxik tuzilgan freymlar orqali tashkil etilib, har bir freym

o'zgarma yuqori darajalar hamda vaziyatga qarab to'ldiriladigan "slotlar" yordamida aniqlashtiriladi. Bu yondashuv murakkab konseptual aloqalar va semantik tarmoqlarni tushuntirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Natijada, geshtalt yondashuvi idrokning tezkor, yaxlit va sezgi asosidagi tomonini ochib bersa, freym yondashuvi uning bilimga tayangan, strukturaviy va analitik jihatini yoritadi. Marvin Minskiyning "Xonaga kirish" misoli freymlar nazariyasining mohiyatini, ya'ni inson ongi yangi vaziyatlarni qanday qabul qilishi va tahlil qilishini tushuntirib beruvchi eng asosiy vizual misollardan biri hisoblanadi. Ushbu misol orqali nazariyaning quyidagi jihatlarini yoritiladi: Oldindan kutilmalar (Expectations): Inson eshikni ochishdan oldin, xonaga kirganida nimalarni ko'rishini taxminan biladi. Masalan, u manzara yoki dengiz qirg'og'ini emas, balki aynan xonani ko'rishni kutadi. Agar kutilgan bu "xona freymi" voqelikka mos kelmasa (masalan, xona o'rnida dengiz ko'rinsa), inson hayratga tushadi va ma'lumotni talqin qilishda qiyinchilikka uchraydi. Freymni faollashtirish va tanlash: Eshik ochilgan lahzada ongda "xona freymi" faollashadi. Agar xona inson uchun tanish bo'lsa, ushbu freymdagi ko'plab ma'lumotlar (mebellar joylashuvi va h.k.) allaqachon to'ldirilgan bo'ladi. Agar xona notanish bo'lsa, ong "quti ichi" kabi eng oddiy xona-freym namunasini tanlaydi. Slotlarni (terminallarni) to'ldirish: Xona freymi iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, uning pastki darajalarida ma'lumotlar bilan to'ldirilishi kerak bo'lgan ko'plab "slotlar" (terminallar) mavjud. Masalan, inson ongi xonaga kirganda "chap devor", "pol" yoki "shift" kabi slotlarni to'ldirish uchun vizual belgilarni (burchaklar, chiziqlar) qidiradi. Default (sukut bo'yicha) qiymatlar: Masalan, inson pol va devor kesishgan chiziqni ko'z qirrasidan pastda va gorizontal holatda bo'lishini kutadi. Agar bu kutilmalar tasdiqlanmasa, freym rad etiladi yoki boshqasiga almashtiriladi. Uzluksizlik illyuziyasi (Continuity): Inson xona ichida harakatlanganda ko'rish tajribasining uzluksizligi freymlar tizimi orqali tushuntiriladi. Turli nuqtayi nazarlardan olingan tasvirlar o'zgarma-da, ulardagi umumiy terminallarga (masalan, bitta devorning turli burchaklardan ko'rinishi) tayinlangan ma'lumotlar saqlanib qolishi hisobiga uzluksizlik hissi paydo bo'ladi. Xonaga kirish jarayoni bu shunchaki vizual tasvirlarni ko'rish emas, balki xotiradagi stereotipik freymni voqelikka moslashtirish va slotlarni aniq ma'lumotlar bilan to'ldirish jarayonidir. Minskiyning fikricha, intellektual tizim uchun ziddiyatsizlikdan ko'ra, xatolardan o'rganish va ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyati muhimroqdir.

Charles Fillmore tomonidan taklif etilgan Savdo freymi o'z ichiga bir necha majburiy elementlarni (slotlarni) oladi: Xaridor (Buyer), Sotuvchi (Seller), Tovar (Goods) va Pul (Money). "Sotib olmoq" (buy) va "Sotmoq" (sell) fe'lari ongmizda aynan bitta "Savdo" freymini faollashtiradi, lekin ular turli ishtirokchilarga diqqatni qaratadi. Masalan, "sotib olmoq" fe'lida diqqat markazida (profilida) xaridor va tovar tursa, "sotmoq" fe'lida sotuvchi va tovar turadi. Default (sukut bo'yicha) qiymatlar: Agar biz "U kitob sotib oldi" desak, matnda aytilmagan bo'lsa-da, ongmizdagi freym orqali u yerda sotuvchi va pul almashinuvi bo'lganini darhol tushunamiz. Badiiy adabiyotda freym tahlili matnning yashirin ma'nolarini tushunish va o'quvchi tomonidan voqealarni qanday talqin qilinishini ochib beradi. Manbalarda keltirilgan eng yorqin misollardan biri "Bo'ri bilan qo'zichoq" masalidir. Ushbu badiiy matn freymlar nazariyasi asosida quyidagicha tahlil qilingan: Vaziyat va ssenariy: Bo'ri daryo bo'yida suv ichayotgan qo'zichoqni ko'rib qoladi va uni yeyish uchun bahona qidiradi. O'quvchi "bo'ri" va "tulki" kabi obrazlar ishtirok etgan matnlarda ularning stereotipik ssenariysini (ayyorlik, yovuzlik) darhol faollashtiradi. "Daryo oqimi" freymi: bo'ri qo'zichoqni "suvni loyqatib, menga ichishga

xalaqit beryapsan" deb ayblaydi. Bu yerda matn tushunish uchun o'quvchining ongidagi "Daryo oqimi" (river-flow) freymi ishga tushadi. Ushbu freym daryoning yuqori qismidan pastga qarab oqishi haqidagi bilimni o'z ichiga oladi. Mantiqiy xulosa: garchi matnda bo'ri yuqorida (upstream) turgani aytilgan bo'lsa-da, o'quvchi daryo freymi yordamida "loyqa suv faqat oqim bo'ylab pastga boradi" degan xulosaga keladi. Shu sababli, bo'rining ayblovi yolg'on ekanligi va uning maqsadi aslida boshqa (qo'zichoqni yeyish) ekanligi mantiqiy isbot talab qilmasdan anglashiladi.

Inson biror matn o'qir ekan, shu matn mazmuniga aloqador bo'lgan bilimlari faollashadi va shu asosda matnni to'g'ri tushuna oladi. Ta'kidlaymiz, kognitiv yondashuv matnning mazmuniy strukturasi e'tibor qaratiladi. Tahlil vaziyat modeli, dunyo haqidagi bilim kabi tushunchalar asosida amalga oshiriladi. Masalan, U dengizni sevadi. Dengiz uni sevmaydi. U tushida ham, ongida ham dengizni ko'radi. To'lqinlari, girdoblari, to'fonlari bilan so'ngsiz va zangori dengiz tomon talpinadi uning yuragi. U dengizni sevadi. Dengiz uni sevmaydi. Dengiz: "U meni emas, u menda qirg'oq sari intilishni sevadi", -deb o'ylaydi. Dengiz uni sevmaydi. (R.P.)

Bir qarashda she'r biri sevadi-yu biri sevmaydigan, o'zining sevmaydigan sevgilisi tomon talpinayotgan oshiq holati ifodasidek tuyuladi. Lekin bu juda jo'n va yuzaki qarash. Dengiz bu Hayot, U-Inson. Inson hayotni sevadi, hayot esa beshafqat: to'lqinli, girdobli, to'fonli. Ammo hayot go'zal-zangori dengiz, biz uni sinovlari (to'lqinlari, girdoblari, to'fonlari) bilan sevganimiz uchun ham go'zal. U holda qirg'oq nimaning ramzi?! Qirg'oq Haq, Haqiqat ramzi: Inson hayot oqimida suzib Haq (qirg'oq) qa, haqiqatga intiladi. Ushbu matn kognitiv tilshunoslik va geshtalt tamoyillari asosida tahlil qilish, inson idrokining qismlardan ko'ra yaxlitlikka moyilligini ko'rsatib beradi. Manbalarga tayangan holda quyidagi bog'liqliklarni keltirish mumkin: Global yaxlitlik (Holism): Matn o'qish jarayonida inson "to'lqin", "girdob", "to'fon" kabi alohida elementlarni shunchaki bo'laklar sifatida emas, balki ularni birlashtiruvchi yaxlit "Dengiz" geshtalti sifatida qabul qiladi. Geshtalt nazariyasiga ko'ra, inson ongi sensor ma'lumotlarni "global parallel jarayon" orqali darhol yaxlit shaklga keltirishga intiladi. Misolda o'quvchi dengizni shunchaki tabiat hodisasi emas, balki tirik, his qiladigan va o'ylaydigan yaxlit obraz (scene) sifatida idrok etadi. Shakl va fon (Figure-Ground) munosabati: Geshtalt psixologiyasining fundamental muammolaridan biri shaklni fondan ajratishdir. Matnda insonning dengizga bo'lgan "sevgisi" dastlab asosiy shakl (figure) bo'lib ko'rinadi, dengizning o'zi esa bu tuyg'u uchun fon vazifasini o'taydi. Biroq dengizning "U menda qirg'oq sari intilishni sevadi" degan xulosasi bu munosabatni o'zgartiradi: endi insonning ichki intilishi (qirg'oqqa intilish) dengiz fonidagi yangi bir "shakl" sifatida profilga (diqqat markaziga) chiqadi. Geshtalt almashinuvi (Gestalt switch): Matn yakunida dengiz tomonidan berilgan talqin (interpretatsiya) o'quvchida "geshtalt almashinuvi"ni yuzaga keltiradi. Bu hodisa xuddi bir tasvirga qarab, avval bir shaklni, so'ngra birdaniga boshqa ma'noni ko'rishga o'xshaydi. O'quvchi uchun "sevgi" freymi (ssenariysi) birdaniga "intilish" yoki "erkinlik talpinish" ssenariysiga almashadi. Vaziyat modeli va Dunyo haqidagi bilim: Inson matn tushunish uchun o'z xotirasidagi "dengiz" haqidagi stereotipik freymni faollashtiradi. Ushbu freymda "dengiz - qirg'oq" munosabati va "to'lqinlar - harakat" kabi kutilmalar (expectations) mavjud. Dengizning "U meni sevmaydi" degan qarori matndagi mantiqiy xulosalarni an'anaviy mantiq orqali emas, balki vaziyatni butun (geshtalt) sifatida his qilish orqali tushunishga yordam beradi. Ushbu badiiy parcha o'quvchi ongida dengizning vizual va hissiy obrazini bir butunlikka jamlaydi. Dengizning so'nggi gapi o'quvchida mavjud bo'lgan "sevgi"

freymini parchalab, uning o'rniga chuqurroq mazmundagi yangi bir yaxlit geshtalni quradi.

Xulosa. Kognitiv tilshunoslikda freym va geshtalt tahlili inson ongidagi bilimlarni strukturalash, matnlarni talqin qilish (interpretatsiya) va voqelikni idrok etish mexanizmlarini tushunishda markaziy o'rin tutadi. Manbalar va tahlillarga asoslangan holda quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarish mumkin:

Freym bu inson xotirasida saqlanadigan va yangi vaziyatlarni tushunish uchun xizmat qiladigan stereotipik vaziyatlar strukturasi hisoblanadi. Geshtalt tushunchasi inson ongi axborotni alohida bo'laklar sifatida emas, balki yaxlit bir butunlik (holism) sifatida qabul qilishini tushuntiradi. Ushbu ikki model inson intellektini tushunishda bir-birini to'ldiradi, biroq ularning yondashuvlari turlichadir. Marvin Minskiy ta'kidlaganidek, geshtalt nazariyotchilari idrokni global parallel jarayonlar orqali tushuntirishga harakat qilishgan. Freymlar nazariyasi esa tahlilni sensor hissiyotlar va o'rganilgan simvolik ma'lumotlarning ulkan tarmog'i o'rtasidagi ko'p sonli

o'zaro ta'sirlarga asoslaydi. Har ikki yondashuvning asosiy maqsadi inson ongiga kelib tushadigan tarqoq, alohida sensor ma'lumotlarni tartibga solib, ularni ma'noli va tushunarli yaxlit tizimga aylantirish mexanizmini izohlashdan iborat. Freym tahlili bu jarayonni oldindan mavjud bilimlar, tajriba va kutilmalar asosida strukturaviy tashkil etish orqali tushuntirsa, geshtalt yondashuvi inson ongining ma'lumotlarni tabiatan yaxlit obraz sifatida qabul qilish xususiyatini ochib beradi. Natijada, bu ikki yondashuv bir-birini to'ldirgan holda, idrok va tafakkur jarayonida ma'no hosil bo'lishining kompleks va ko'p qatlamli tabiatini chuqur yoritib beradi.

Xulosa qilib aytganda, freym tahlili axborotni tartibli va matnga bog'liq holda tushuntirsa, geshtalt tahlili uni yaxlit va integral obraz sifatida idrok etish mexanizmlarini ochib beradi. Shu bois, kognitiv tilshunoslikda ushbu ikki metod birgalikda inson tafakkuri, konseptual tizimi va olamning lisoniy manzarasini chuqur hamda kompleks o'rganishga xizmat qiluvchi eng samarali yondashuvlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmanova M.T. O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning lingvokognitiv xususiyatlari. F.f.d., DSc... diss. – Toshkent, 2024. – 276 b.
2. Волосухина Н.В. К вопросу о трактовке понятий «концепт» и «фрейм» в современной лингвистике // Университетские чтения – 2010: материалы научно-методических чтений ПГЛУ. Материалы научно-методических чтений ПГЛУ. Пятигорск: Издательство ПГЛУ, 2010. –С.41-46.
3. Dohman, Ü. (2022). Kuramsal yönleriyle bilişsel dilbilim. Uludağ Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi, 23(43), P.1235-1259.
4. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1981. – № 10. – С.350-368.
5. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») / Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 –184.
6. Ümit Yegen. Bilişsel Psikoloji ve Dilbilgisi Öğretimi. Duvar Yayınları, 2021.– S.223-249.
7. Fillmore C., Baker C. 2000. Frame Net Web Site. <http://www.icsi.berkeley.edu/framenet>.
8. <https://courses.media.mit.edu/2004spring/mas966/Minsky%201974%20Framework%20for%20knowledge.pdf>